BUXOROLIK MA'RIFATPARVAR

Beshimov Maqsud Komilovich
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Qabul qilindi: 19.10.2026
Ko'rib chiqildi: 20.10.2026
Tasdiqlandi: 21.10.2026

Kalit so'zlar: Mirzo Abdulvohid Munzim, Buxoro, ma'rifatparvarlik, jadidchilik, yangi usul maktablari, Yosh buxoroliklar, xattotlik, ijtimoiy-siyosiy faoliyat.

Annotatsiya. Mazkur tezisda XX asr boshlarida Buxoroda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy jarayonlarda Mirzo Abdulvohid Burxonov (Munzim)ning tutgan o'rni va faoliyati yoritilgan. Uning yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, o'quv adabiyotlarini nashr etish, xalq savodxonligini oshirish, matbuot va adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Shuningdek, Munzimning Yosh buxoroliklar harakati bilan aloqalari, davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati, yoshlarni xorijda o'qitish tashabbuslari hamda til va alifbo islohotlariga qo'shgan hissasi ko'rib chiqilgan. Uning ma'rifatparvarlik qarashlari va ijodiy merosining tarixiy ahamiyati ochib berilgan.

Kirish. XX asr boshlarida Buxoroda yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy o'zgarishlarda Mirzo Abdulvohid Burxonov (Munzim) alohida o'rin tutadi. U ma'rifatparvar, shoir, xattot, pedagog va jamoat arbobi sifatida Buxoroda yangi usuldagi ta'limni rivojlantirish, xalqning ilmiy-ma'rifiy saviyasini oshirish hamda ijtimoiy hayotni isloh qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarda faol ishtirok etgan. Munzimning dunyoqarashi, ijodiy salohiyati va ma'rifatparvarlik faoliyati uning zamondoshlari tomonidan ham yuqori baholangan. Jumladan, Sadri Ziyo o'zining "Tazkor ul-ash'or" asarida Munzimning she'riy va nasriy mahoratini alohida e'tirof etgan.

Munzim o'z davrining mohir xattotlaridan biri bo'lib, 1900-yilda Sadr Ziyoning iltimosiga binoan Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" asarini ko'chirgan. Shuningdek, 1902-yilda Hayrat she'rlarini ikki devonga jamlagan. Bu ma'lumotlar uning nafaqat adabiyotga, balki qo'lyozma merosni saqlash va tarqatish ishlariga ham katta e'tibor berganini ko'rsatadi.

Munzimning ma'rifatparvarlik faoliyatida yangi usuldagi ta'limni yo'lga qo'yish muhim o'rin egallagan. U 1909-yilda Sadriddin Ayniy bilan hamkorlikda

o‘z hovlisida xususiy maktab tashkil etgan. Mazkur maktabda ta’lim olish imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berishga alohida e’tibor qaratilgan: moddiy imkoniyati mavjud o‘quvchilardan haq olingan, kambag‘al bolalar esa bepul o‘qitilgan. Biroq yangi ta’lim usullariga qarshi bo‘lgan mutaassib kuchlarning bosimi natijasida maktab faoliyati to‘xtatilgan. Sadriddin Ayniy xotiralarida Munzim bilan birgalikda alifbo yaratish ustida ishlaganini qayd etadi. Bu holat ularning ta’limni yangilash va savodxonlikni oshirishga qaratilgan hamkorligini ko‘rsatadi.

Munzim va Ayniy ma’rifiy faoliyatni faqat maktab ta’limi bilan cheklab qolmay, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini nashr etishga ham intilganlar. Ular “Buxoro shirkati” faoliyatida ishtirok etib, “Tahzib us-sibyon”, “Zaruriyoti diniya”, “Tartil ul-Qur’on”, “Husni xat” va “Kitobi chonish” kabi asarlarning nashr etilishiga hissa qo‘shganlar. Ushbu tashabbuslar Buxoroda yangi usuldagi ta’limni rivojlantirish, o‘quv adabiyotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va ma’rifiy g‘oyalarni keng yoyishga xizmat qilgan.

Munzimning ilg‘or qarashlari va ta’lim sohasidagi tashabbuslari amirlikdagi konservativ kuchlarning qarshiligiga uchragan. Tazyiqlar tufayli u Qarshiga ketishga majbur bo‘lgan. 1910-yilda Buxoroga qaytgach, ta’lim berish faoliyatini davom ettirib, ayrim xonadonlarda yashirin ravishda yangi usuldagi maktablar tashkil etgan. U 1917-yilgacha o‘quvchilarga saboq berish bilan shug‘ullangan. Shuningdek, katta yoshdagi savodsiz kishilarning bilim olishi uchun ham mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘ygan. Bu faoliyat Munzimning ma’rifatni jamiyatning turli qatlamlariga yetkazishga intilganini anglatadi.

Munzimning ma’rifatparvarlik qarashlari targ‘ibot va matbuot faoliyatida ham namoyon bo‘lgan. U aholini ozodalik, salomatlik va kundalik turmush madaniyatiga rioya etishga undovchi varaqalar tayyorlash hamda tarqatishda ishtirok etgan. Uning bunday tashabbuslari ma’rifatni faqat savod chiqarish bilan cheklamasdan, xalqning turmush tarzini yaxshilash bilan ham bog‘laganini ko‘rsatadi.

1917–1920-yillarda Buxorodagi murakkab siyosiy vaziyat va ta’qiblar sababli Munzim o‘g‘illari Rahim va Rashid hamda ayrim hamfikrlari bilan Toshkentda yashagan. Bu davrda u matbuot va siyosiy-ma’rifiy faoliyatda ishtirok etib, “Uchqun” va “Qutulush” nashrlari bilan hamkorlik qilgan. Uning faoliyati mazmunida adolatsizlik, jaholat va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurash, xalqning ma’naviy va moddiy farovonligini ta’minlash g‘oyalari muhim o‘rin tutgan.

1921-yil yanvaridan 1922-yil iyunigacha Munzim Buxoro Xalq Respublikasining sog‘liqni saqlash noziri lavozimida ishlagan. 1922-yil iyunida Buxoro hukumati qarori bilan ishchilar va xizmatchilar oilalarining 44 nafar farzandini, jumladan, o‘zining ikki o‘g‘lini Germaniyaga o‘qishga olib borishda ishtirok etgan. Ushbu tashabbus yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashi va xorijiy ta’lim tajribasini o‘zlashtirishiga qaratilgan edi. Germaniyada bo‘lgan

davrida u Sadriddin Ayniyning arab yozuvida nashr etilgan "Xolida yoki Qizbola" asarini ham olib kelganligi qayd etiladi.

Germaniyadan qaytgach, Munzim 1924–1927-yillarda Samarqanddagi tojik tilidagi nashriyot faoliyatida adabiy xodim sifatida ishlagan va pedagogik faoliyatini ham davom ettirgan. 1927-yilda O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi a'zoligiga saylangan. Shu yili yangi alifbo yaratish ishlari doirasida Dushanbega yuborilib, Lotin yozuvi qo'mitasi raisi o'rinbosari etib tayinlangan. U keyingi yillarda maktablarda tojik tili va adabiyotidan dars berish bilan birga, ta'lim tizimini takomillashtirish, tilni soddalashtirish, arab yozuvining mavjud muammolari va lotin alifbosining ahamiyatiga bag'ishlangan maqola hamda she'rlar yaratgan.

1932-yilda Munzim "Qizil Tojikiston" gazetasining adabiyot bo'limida ish boshlagan. U gazeta materiallarining tili va uslubini tahrirlash, yosh ijodkorlarga ko'maklashish hamda adabiy jarayonni rivojlantirishga hissa qo'shgan. Uning ijodiy merosi turli she'riy janrlardagi asarlarni qamrab oladi. She'rlarida ma'rifat, taraqqiyot, ijtimoiy adolat va xalq manfaatlari bilan bog'liq masalalar muhim o'rin tutadi. Munzimning arab va turkiy tillarni bilishi, xattotlik mahorati hamda til va ta'lim masalalariga qiziqishi uning ko'p qirrali ziyoli sifatidagi faoliyatini namoyon etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Mirzo Abdulvohid Munzim XX asr boshlarida Buxoroda kechgan ma'rifiy yangilanishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan ko'p qirrali tarixiy shaxsdir. Uning yangi usuldagi maktablar tashkil etish, o'quv adabiyotlarini nashr qilish, matbuot va adabiyot rivojiga hissa qo'shish, shuningdek, yoshlarni xorijda o'qitish bilan bog'liq faoliyati Buxorodagi ma'rifatparvarlik harakatining muhim jihatlarini aks ettiradi. Munzim merosini tarixiy manbalar asosida o'rganish uning Buxoro jamiyatidagi o'rni, Yosh buxoroliklar harakati bilan aloqalari va XX asr boshlaridagi islohotlar tarixini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Аслиддин Қамарзода "Донишнома-тазкирай суханварони тоҷики ўзбекистони асри хх- ибтидои асри ххі" Самарқанд-Душанбе 2023 Б– 440
2. Sohib Tabarov. Mirzo Abdulvohidi Munzim. –Dushanbe. 2008. –S.118-121
3. Табаров С. Мунзим. – Душанбе: Ирфон, 1991. – Саҳ. 41
4. Beshimov, M. (2022). Abdulvahid Munzim – enlightened poet, state and public figure. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(6), 52-56.
5. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 32;